

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish: Yozyovonda tayyorgarlik bosqichi

// 17.12.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/aholi-va-qishloq-xo-jaligini-ro-yxatga-olish-yozyovonda-tayy>



Mamlakatimizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida vazirlik va idoralardan hududlarga biriktirilgan mas'ullar tomonidan o'rganish va tayyorgarlik ishlari izchil davom etmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 19-sentabrda "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan "O'zkimyosanoat" AJ mas'ullari joylarda tushuntirish ishlarini olib borishyapti.



Xususan, Farg'ona viloyatining Yozyovon tumani "Do'stlik", "Qoratepa", "Guzarboshi", "Yoshlik", "Xonabod", "Yuqori", "Qorasqol" MFYlariga tashrif buyurilib, ro'yxatga olish jarayonlarini sifatli tashkil etish, ma'lumotlarning aniqligi va to'liqligini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratildi.

"Mahalla yettiliklari" tomonidan amalga oshirilayotgan GIS texnologiyalari asosida ma'lumotlarni yig'ish, uy va qishloq xo'jaligi obyektlarini to'liq qamrab olish bo'yicha bajarilayotgan ishlar tahlil qilindi.



